

GREATER CINCINNATI KASALXONALARINING YANGILANGAN TASHRIG BUYURISHGA OID CHEKLANISHLARI

11 mart 2020 yil

OAV UCHUN KONTAKT MA'LUMOTLARI:

Christa Hyson, MPH
Senior Manager, External Relations
(513) 247-5253

DARHOL CHIQRISH UCHUN

GREATER CINCINNATI KASALXONALARINING YANGILANGAN TASHRIG BUYURISHGA OID CHEKLANISHLARI

Aniq bir kasalxonalarining ishlash va xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojlariga asoslangan qarorlar

SINTSINNATI, OGAYO, 16 MART 2020 – YIL Hududimiz salomatlik va sog'liqni saqlashga ta'sir qiluvchi masalalarda hamkorlikda ishlash bo'yicha uzoq tarixga ega. COVID-19 kasalligining tarqalishi esa bundan istisno. The Health Collaborative kompaniyasining [Greater Cincinnati Halokatlariga tayyorlik kaolitsiyasi](#) orqali biz COVID-19 kasalligiga qarshi barcha Kaolitsiya a'zolari orasida hududiy muvofiqlashtirish va hamkorlikni ishlashni yo'lga qo'ya olamiz.

Hududimizdagi bemorlar va rezidentlar sog'lig'ini saqlash uchun tashrif buyurishlarga cheklanishlar yangilandi. Agar siz kasalxonaga tashrif buyurishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, joylashuv bo'yicha aniq bir cheklanishlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar olish uchun to'g'ridan-to'g'ri kasalxonaga murojaat qiling yoki uning veb-saytiga kiring.

Kasalxonalar keluvchilarni quyidagi vaziyatlar bo'yicha qabul qiladilar:

- Proseduradan chiqqan yoki kasalxonadan javob berilgan bemorni olib ketish uchun javobgar shaxs.
- Tug'ruq jarayonida bo'lgan onalar uchun tayinlangan sherigi yoki asosiy qarovchisi.
- O'lim holatida bo'lgan holatlar.

Ushbu ruxsat berilgan bemorlarning tanlangan guruhi uchun quyidagilar bo'ladi:

- Bemorlarning oldiga bir vaqtning o'zida faqat bir kishining kirishiga ruxsat beriladi *18 yoshdan kichik bemorlardan tashqari
- 14 yoshdan kichiklarga kirishga ruxsat berilmaydi.
- Agar kishilarda har qanday respirator kasallik belgilari (yo'tal, aksirish, burun oqishi, istima va hok.) mavjud bo'lsa, ularga bemorlarni ko'rishga ruxsat berilmaydi.
- Agar tashrif buyuruvchi so'nggi 14 kun ichida xorij safatida bo'lgan bo'lsa, unga ruxsat berilmaydi.
- Barcha tashrif buyuruvchilar muassasaning ko'pchilik foydalanadigan joylarida bo'lganlarida nafas yo'llari gigiyenasi va yo'talish odobiga amal qilishlari kerak.
Agar sizga tashrif buyurishga ruxsat berilsa, tekshirishlariga tayyor turing. Kasalxonalar va provayderlar har bir holat uchun alohida tarzda boshqa istisnolarni hisobga oladilar.

Biz Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari (Centers for Disease Control and Prevention, CDC) va davlat sog'liqni saqlash boshqarmalaridan olingan so'nggi ma'lumotlar va yo'riqnomalar bilan tayyor holda turibmiz. Hududimiz hududdagi mavjud tibbiy jihozlar va xavfsizlik qurilmalarining ro'yxatini tuzish, kasalxonalar sig'imlarini kuzatib borish, tayinlangan tekshirish joylari uchun eng yaxshi amaliyotlarini o'rganish kabi tayyorgarlik choralarini ko'rmoqda va zaruriyat tug'ilgan hollarda kasalxona palatkalarini o'rnatish uchun joylarni baholab bormoqda.

Aynan hozir Greater Cincinnati rezidentlar uchun qilishlari kerak bo'lgan eng muhim narsa bu kasallikning oldini olish choralarini davom ettirishdir:

- Mahalliy va davlat organlari tomonidan bayon qilib berilgan kishilarning bir-birlaridan masofada bo'lish tartiblariga amal qiling.
- Qo'llaringizni tez-tez sovun va suv bilan kamida 20 soniya davomida yuvib turing.
- Yo'talganingizda va aksirganingizda yuzingizni tirsagingiz yoki bilagingiz bilan yoping.
- Agar o'zingizni yaxshi his qilmasangiz, ishga/maktabga/mashg'ulotlarga bormang.
- Agar siz yuqori xatar ostidagi shaxs bo'lsangiz, [ushbu qo'shimcha ehtiyot choralarini](#) ko'rib chiqing.
COVID-19 kasalligi haqida ko'proq ma'lumotlar olish uchun <https://healthcollab.org/covid-19/> saytiga kiring

-###-

The Health Collaborative tashkiloti haqida: The Health Collaborative bu yanada sog'lom kishilar, yaxshoroq davolash va kamroq harajatlarga olib keluvchi ma'lumotlar asosidagi yaxshilanishlarni ilgari suruvchi notijorat tashkilotidir. The Health Collaborative tashkiloti haqida ko'proq ma'lumotlar olish uchun healthcollab.org saytiga tashrif buyuring.